ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2025 / № 3. 1-3

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 3. 1-3

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.09.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.09.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.09.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

XUDOYBERGANOVA DURDONA
Metaforalar shakllanishida antropotsentrik omillarning o‘rni 7

ЛУТФУЛЛАЕВА ДУРДОНА
Aksiolingvistikada qadriyat tushunchasi va uning turlari 10

SOBIROV ABDULHAY SHUKUROVICH
Andijon dialektal zonasi haqida 16

HAKIMOV MUHAMMADXON XO‘JAXOVICH
Genderoleksemalarning nominativ farqlanishi 20

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH
Dunyo tilshunosligida o‘zlashma so‘zlarga munosabat masalasi 25

ДУСТМУРОДОВ МАЪРУФЖОН МАНСУР ЎҒЛИ
Уйғур хоқонлиги даври ёдномалари туркумидан:
тариат (ТЭРХ) битиги ҳақида баъзи мулоҳазалар 28

UBAYDULLAYEV ALISHER ABDUSALOMOVICH
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» qo‘lyozmasining lingvistik tahlili 33

XUJAMKULOVA MAXBUBA BOBONAZAROVNA
Badiiy matnning presuppozitiv tahlili 38

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Tog‘ay Murod nasriy nutqida metaforaning statistik tahlili 42

SHAYMARDANOVA AZIZA RAIMJANOVNA
Lingvistik kodlar aralashuvi tushunchasi va uning
lakunarlik hodisasini bartaraf etishdagi imkoniyatlari 48

ESHNIYOZOVA GULHAYO HAMROQUL QIZI
Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida badiiy
san’atlarni qo‘llash mahorati 51

SULAYMONOV BOBIR
Izoh tipidagi o‘quv lug‘atlarda leksikografik
semantizatsiyaga qo‘yiladigan talablar 55

BOYSARIYEVA SAODAT
Morfem o‘quv lug‘atining amaliy jihatlari 58

DAVIDOV YUNUS JUMMAYEVICH
Badiiy asarlarda ko‘pma’nolilikning uslubiy xususiyati 61

ZARIPOVA MATLUBA QULFITDINOVNA
O‘zbek va rus tillarda tarjimaning lingvokulturologik
va peyorativlik muammolari 64

AZIZ AMINI
Frazeologik birliklarning o‘rganilishi va ularning leksikografik
xususiyatlari (Afg‘oniston o‘zbek dehqonlari nutqi misolida) 66

МУНДАРИЖА

ALLAMURATOVA XOSIYAT
O‘zbek antroponimikasida apotropeik komponentlarning
sodda va qo‘shma ismlarda ifodalanishi 69

РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Синонимические отношения в словах с
гендерными признаками узбекского языка 73

HATAMOV ZIYODIN MAMADULLAYEVICH
Badiiy uslubda modal so‘zlarning funksional-stilistik xususiyatlari 76

ALIMOVA E’TIBOR KAROMAT QIZI
O‘zbek xalq ertaklarida mifonim va teonimik birliklar 81

MUXAMMADALIYEVA SHAXZODA MAXMUD QIZI
Maqollar orqali ramziy ma’noning ifodalanishi 89

ABRUYEVA ZAXRO SHOKIR QIZI
O‘zbek tili murojaat shakllari tizimida kognitiv metaforaning o‘rni 92

XUDAYBERGANOVA MUNIRA
«Muqaddimatu-l-adab» asari ustida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar:
tilshunoslik va manbashunoslik yondashuvlari 96

ABDUQAHHOROVA XOSIYAT ABDURASUL QIZI
Tarixga oid terminlarda o‘z va o‘zlashma qatlam 100

SHADMANOVA ALYONA SERGEYEVNA
Paustovskiy hikoyalarida syujet poetikasi 104

QOSIMJONOVA FARANGIZ FARID QIZI
Iboralarning so‘z turkumlariga munosabati 108

ADABIYOTSHUNOSLIK

ҚУРОНОВ ДИЛМУРОД ҲАЙДАРАЛИЕВИЧ
Эътибордан четда қолган нашр 111

ШОФИЕВ ОБИДЖОН БАХТИЁРОВИЧ
Психологик таҳлил ва бадиий драматизм
(Эркин Аъзамнинг «Таъзия» ва «Ступка» ҳикоялари мисолида) 117

АЛИМОВ ПАРДА, АВРИДДИНОВ ЖОБИР
Бадиий характер муаммоси 121

YULDOSHEV DILMUROD
Matyoqub Qo‘shjonov talqinida qodiriy fenomeni («O‘zbekning o‘zligi» asari misolida) 123

ДИЛФУЗА ПАРДАЕВА
Художественные интерпретации образа Амира Нимура и его
времени в русской и узбекской поэзии XX века 129

BOLTAYEVA GULCHEHRA SHOKIROVNA
Taxmislarning spetsifik belgilari 132

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 7-8
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

BADIIY ASARLARDA KO'PMA'NOLILIKNING USLUBIY XUSUSIYATI

Davidov Yunus Jummayevich,
Termiz davlat universiteti
o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ko'pma'noli leksemalarning har bir sememasini semalarga ajratib tadqiq etish ularning leksik ma'nosini nisbatan aniq belgilashga yordam beradi. Sememaning mazmuni faqat leksik ma'nolardangina iborat bo'lmaydi, unga stilistik, nutqiy xoslanish kabi belgi xususiyatlar kiradi, bular barchasi birgalikda semantik strukturani tashkil qiladi[1]. Muayyan leksema ifodalaydigan ma'nolar yig'indisi mazkur so'zning sememalar mundarijasini tashkil qiladi. Semema til birligi sifatida abstrakt hodisadir. Semema nutqda boshqa leksemalar qurshovida keladi. Mana shunday qurshov leksik qurshov deyiladi[2]. Ko'pma'noli so'zlarni nutqdan ajratib alohida tadqiq qilib, o'rganish to'g'ri bo'lmaydi. Negaki matndagi har bir so'z o'ziga xos leksik qurshovga ega bo'ladi va boshqa so'zlar bilan grammatik va semantik jihatdan bog'lanadi. Ko'pma'noli so'zlarning ma'nolarini farqlash uchun ularning leksik qurshovi qiyoslanib, sememalarning mustaqillik darajasi aniqlanadi.

Barcha ko'chma ma'noli so'zlar ma'lum darajada ta'sirchanlikni ta'minlasa-da, badiiy nutqda ko'pma'noli so'z faqat shu maqsadida ishlatilmaydi. Ya'ni ko'pma'noli so'z ishtirok etmagan jumlani ta'sirchanlikdan xoli deb bo'lmaydi. Bu haqda B.Umurqulovning quyidagi fikrlari ahamiyatlidir. «Barcha badiiy matnlarni obrazli vositalar bilan bezash imkoniyati yo'qligi ayon. Shunday ekan badiiylikning, badiiyatning vujudga kelishi faqat obrazli vositalar uyushmasi natijasi emas. Obrazli vositalarning ko'lamdorligini inkor etmagan holda, badiiy adabiyotning obrazli ta'sirchanligini uyushtiruvchi muhim vosita so'z ekanligiga diqqatni jalb etmoqchimiz. Binobarin, har qanday obrazli vosita so'z va uning matnda mahorat bilan ishlatilishi asosida vujudga kelishi muqarrardir»[3]. Badiiy matnda mahorat bilan qo'llangan har qanday so'z obrazlilikni, ta'sirchanlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Har bir so'z badiiy matnda obraz yaratilishda ishtirok etishi mumkin, ayniqsa, ko'pma'noli, ko'chma ma'noli so'zlarda bu imkoniyat yuqoridir. Bu haqda V.V.Vinogradov «Stilistika. Teoriya poeticheskoy rechi. Poetika» asarida obraz uchun material bo'la olmaydigan so'z va lisoniy shakl yo'qligini, faqat ularni badiiy obrazlilik maqsadida qo'llash uslubiy va estetik jihatdan asoslanishi kerakligini qayd etadi.

Badiiy asardagi har bir so'z badiiy maqsadga yo'naltirilgani sababli ham obrazlilikni yuzaga keltiradi. «Badiiy nutqda hatto o'zining to'g'ri ma'nosi bilan qo'llangan so'z lug'atdagi ayni shu so'z bilan aynan teng emas, balki hissiy-estetik jihatdan ham munosabatda bo'ladi. Natijada bu so'z ham emotsional-ekspressiv ta'kid bilan idrok etiladi»[4]. B.Umurqulov ta'kidlaganidek, «Obrazli ifodalar o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Bunday ifodalar ijodkorning katta mehnati va o'tkir tafakkurining samarasi sifatida vujudga keladi. Ba'zan bir fikrni bayon etishda qator-qator obrazli ifodalarning qo'llanilgani kuzatiladiki, bu holatni ko'proq poetik nutq uchun xos deb baholash mumkin»[5]. Darhaqiqat, badiiy asarlarda ko'pma'noli so'zlar ham obrazlilikni, ta'sirchanlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, ko'chimlar faqat badiiy nutq uchun xizmat qilmaydi. Ular nutqning boshqa vazifaviy turlari uchun ham ma'lum nominativ vazifa bajaradi. Lekin badiiy nutqda badiiy obraz sifatida qabul qilinib, atalayotgan narsa haqida ongimizda jonli tasavvur – obrazni yuzaga keltiradi.

N.Axmedova «Obrazli tafakkurning lingvistik talqini» nomli maqolasida «…predmetlar doimo serqirra bo'lishini, shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, bir obraz tafakkurda bir necha predmetga nisbatan qo'llanishi mumkinligini, odamning tishi, arraning tishi, taroqning tishi kabi birikuvlarda odamning tishi tafakkurdagi asosiy obraz bo'lib, tish predmetiga xos yanchish, maydalash, bo'laklash, bir xil ketma-ketlikda joylashish kabi xususiyatlar shu obrazning boshqa predmetlar (arra, taroq)ga nisbatan qo'lla-

[1] Раҳматуллаев Ш. Лексик маънони компонентлаб таҳлил қилиш // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: 1978. №4. – Б. 56.
[2] Бу ҳақда қаранг. Реформатский А. Введение в языковедение. – М.: Наука, 1967. – С .107.
[3] Умурқулов Б. Бадиий наср жозибаси. – Тошкент: Muharrir, 2021. – Б. 102.
[4] http://myuldashev.blogspot.com/2015/03/blog-post_19.html.
[5] Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент: Фан, 1990. – Б. 56.

nishiga sabab bo‘lishini ta’kidlaydi. Obrazlarning bunday o‘ziga xosligi orqali hosil qilingan tafakkur shakli obrazli tafakkur atamasi bilan nomlanishini»[1] qayd etadi. Demak, ko‘pma’noli so‘zlarning hosila ma’nolari obrazlilikni ta’minlashga ham xizmat qiladi. Sh.Rahmatullayev so‘zning yuzaga kelgan hosila ma’nosi ma’lum vaqt o‘tgach obrazlilikni yo‘qotishi mumkinligini qayd etib, *qozonning qulog‘i, choynakning burni* birikmalaridagi *quloq va burun* so‘zlarining hosila ma’nosi o‘z ifodalaridagi obrazlilikni yo‘qotganligini ta’kidlaydi[2]. M.Mirtojiyev: «So‘z hosila ma’nosi metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, tobelilik hodisalarining barchasiga ko‘ra yuzaga keladi. Bunda so‘zning ma’no taraqqiyotiga ko‘ra hosil bo‘lgan barcha leksik ma’nolari nazarda tutiladi. Ma’lum so‘zda hosila ma’no yuzaga keltirilar ekan, ko‘p hollarda ifodaning obrazliligini ta’minlash maqsad qilib olinadi. Lekin hamma vaqt ham ifodaning obrazliligini ta’minlash maqsadi bilan hosila ma’no yuzaga kelavermaydi»[3], – deya ta’kidlab o‘tadi. *Ko‘rib gul yuzingni bog‘da bandadur*. (Muqimiy) *Dasturxonga boqqan do‘st emas.* (Maqol) *Bir boshga bir o‘lim*. (Maqol) Olim ushbu gaplardagi *gul* so‘zi metaforaga ko‘ra; *dasturxon* so‘zi metonimiyaga ko‘ra; bosh so‘zi sinekdoxaga ko‘ra hosila ma’no yuzaga kelganligi, lekin pragmatik semaga ega emasligi, obrazli ifodalamasligi, shuningdek, vazifadoshlik va tobelilikka ko‘ra hosila ma’no yuzaga kelganda ham obrazlilik kuzatilmasligini qayd etadi. Bizningcha, bu kabi hosila ma’nolar nutqda ko‘p qo‘llanilganligi sababli so‘zlovchi yoki tinglovchi tafakkurida va nutqida ko‘nikma hosil bo‘lib, uni oddiy qabul qiladi. Lekin baribir ularning zamirida obrazlilik ma’lum darajada saqlanib qoladi.

O‘TILda **tashla** fe’lining quyidagi sakkiz[4] ma’nosi keltirilgan: biror narsani qo‘ldan tushirmoq, yo‘naltirmoq, otmoq; narsani biron boshqa narsa, joy ustiga, ostiga yoki ichiga yo‘naltirmoq, qo‘ymoq, olmoq, solmoq; o‘zini otmoq, kuch bilan intilmoq; safarbar qilmoq, yo‘llamoq; (yolg‘iz) qoldirmoq, qoldirib ketmoq; barham bermoq, to‘xtatmoq, yig‘ishtirmoq; tushmoq, pasaymoq; raqsga tushmoq; o‘ynamoq. Biz kuzatgan badiiy asarlarda bu fe’lining yana quyidagi ma’nolari aniqlandi. *Derazalarni lang ochdi. Oftobro‘yaga to‘shak* ***tashladi.*** (Tog‘ay Murod. «Oydinda yurgan odamlar») Bu gapda tashlamoq fe’li *to‘shamoq, yoymoq* ma’nosini anglatgan. *Ayol bo‘yida bo‘ldi! Boshi uzra o‘tmish Olloyor oti dupur-dupuridan... dupur-dupuridan qalt-qalt qaltiradi... bola* ***tashlab*** *qo‘ydi!* (Tog‘ay Murod. «Oydinda yurgan odamlar») Bu gapda esa *bolasi tushmoq, nobud bo‘lmoq* ma’nosini anglatishga xizmat qilgan. *Otamiz panalab-panalab bordi. Birdan qo‘zi oyog‘iga qo‘l* ***tashladi.*** *Qo‘zi ushlatmay qochdi.* (Tog‘ay Murod. «Oydinda yurgan odamlar») Tashlamoq fe’li keltirilgan misolda *(ushlash uchun) uzatmoq, cho‘zmoq* ma’nosi uchun ishlatilgan. *Po‘st* ***tashlamish*** *yong‘oqlar buloqqa cho‘lp-cho‘lp tushdi.* (Tog‘ay Murod «Oydinda yurgan odamlar») Yuqoridagi gapda *ajralmoq, alohida bo‘lmoq (bodom, yong‘oq kabi mevalar yoki ilon kabi jonivorlarga nisbatan)* ma’nosini anglatish uchun qo‘llanilgan. *Aslida ishimni* ***tashlab*** *ovchilikka o‘tib qo‘ya qolsam ham bo‘lar ekan.* (O‘.Umarbekov. «Odam bo‘lish qiyin») Bu gapda *bo‘shamoq, yig‘ishtirmoq* kabi ma’nolar ifodasi uchun ishlatilgan*. Harakatlaridagi ilgarigi hayajon susaydi, qizning birdaniga jiddiylashgani u bilan barobar oyoq* ***tashlasa*** *ham, musiqani boyagidek his qilmayotgan, uning yengil gaplarga bo‘lgan jur’atini to‘xtatgan*… (O‘.Umarbekov. «Odam bo‘lish qiyin») Bu gapda *bosmoq, qo‘ymoq* ma’nosini anglatgan. *Yo‘q, u Gulchehrani* ***tashlamaydi****..Uni* ***tashlash*** *xiyonat va u – Abdulla bunday xiyonatga qodir emas.* (O‘.Umarbekov. «Odam bo‘lish qiyin») Yuqoridagi misolda *aloqani uzmoq, unutmoq, ahdini buzmoq* kabi ma’nolar ifodasi uchun xizmat qilgan. *Lekin hozir xatarli bahor emas, Amu kun sayin o‘zini dam chapga, dam o‘ngga* ***tashlab****, bema’ni to‘lg‘anmaydi, hozir kuz, qirg‘oqlar o‘sha – o‘sha.* (A.Muxtor. «Chinor») Bu gapda *oqmoq, urilmoq* ma’nosini anglatgan. *Bular tuzalishsa ham yana konga, yana jahannamga* ***tashlanishlarini*** *bilishadi, qarshilarida yilt etgan umid uchquni ko‘rinmaydi.* (A.Muxtor. «Chinor») Yuqoridagi gapda esa *jo‘natmoq, yubormoq* ma’nosida qo‘llanilgan. *Zebi ham boshqa o‘rtoqlariday, aravadan o‘zini «tapp!» etib* ***tashlamoqchi*** *bo‘ldi.* (Cho‘lpon. Kecha va kunduz) Keltirilgan gapda tashlamoq fe’li *sakramoq, tushmoq* ma’nosida qo‘llanilgan. … *bir necha ot oyog‘larini eshitib qorovullardan bittasi – «tuyoq tovshimi?»– deb, ikkinchisiga savol* ***tashlab*** *qo‘ydi.* (A.Qodiriy. «O‘tkan kunlar») Yuqoridagi gapda tashlamoq fe’li *bermoq, yo‘llamoq, so‘ramoq* ma’nosida ishlatilgan. *Oshni* ***tashlab*** *ketsangiz xafa bo‘laman, qirqqa chidagan qirq biriga ham chiday oladir.* (A.Qodiriy. «O‘tkan kunlar») Bu gapda tashlamoq fe’li *qoldirmoq, kutmasdan, yemasdan* kabi ma’nolarni anglatishga xizmat qilgan. *Ammo qutidor «haydalg‘an» so‘zini* ***tashlab*** o‘qudi. (A.Qodiriy. «O‘tkan kunlar») Bu gapda tashlamoq fe’li *tushirmoq, qoldirmoq* ma’nosida qo‘llanilgan. Tashlamoq fe’li *urug‘ qo‘ymoq, qoldirmoq* ma’nosida ham qo‘llanilgan: *29 xil noyob nav baliq delta ko‘llariga urug‘*

[1] Ахмедова Н. Образли тафаккурнинг лингвистик талқини. http://www.gospodarkainnowacje.pl. – Б. 119.
[2] Турсунов У. Мухторов Ж. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: “Ўқитувчи” нашриёти, 1992. – Б. 129.
[3] Миртожиев М.М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – Б. 142.
[4] O‘TIL. 5-jild. –Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2023. – B. 161.

tashlamay *qo‘ydi.* (A.Muxtor. «Chinor») Ko‘pma’noli tashlamoq fe’li badiiy asarlarda turli ma’nolarni ifodalashda faol qo‘llangan.

O‘TILda **bermoq** fe’lining qo‘liga tutqizmoq; baxsh etmoq, bag‘ishlamoq; ruhiy holat, kayfiyat, ko‘rinish paydo qilmoq; yo‘q narsa bilan ta’minlamoq; biror muassasaga o‘rnashtirmoq, kiritmoq; o‘z mahsuli bilan ta’minlamoq, nashrga kiritmoq, bosmoq, e’lon qilmoq, eshittirmoq, ko‘rsatmoq kabi olti ma’nosi keltirilgan[1]. Tahlillarimiz natijasida bermoq fe’lining yana quyidagi ma’nolarda qo‘llanishi aniqlandi. *Shofyor gaz* ***berdi.*** (O‘.Umarbekov. «Odam bo‘lish qiyin*»)* Bu gapda bosmoq fe’li *bosmoq* ma’nosida ishlatilgan. *Kafe bitsin, shunda Gulchehra opam yaxshilab ziyofat* ***beradilar.*** (O‘.Umarbekov. «Odam bo‘lish qiyin*»)* Yuqorida keltirilgan gapda bermoq fe’li *o‘tkazmoq, qilmoq* ma’nosini anglatgan. …*Umrinisabibini eng ilgari Enaxon ko‘rdi, yuzlarida hanuz o‘sha kulishning alangasi ila tovush* ***bergani*** *holda, uni qarshi olgali yugurdi.* (Cho‘lpon. «Kecha va kunduz*»)* Bu gapda bermoq fe’li *chiqarmoq (ta’laffuz qilmoq)* ma’nosini ifodalab kelgan. *Do‘konidan har narsa topiladigan bir baqqolga «farang baqqol» deb nom qo‘ygan keksalar har ishda qo‘li bo‘lgan bu odamga «Miryoqub epaqa» laqabini* ***berib****, xato qilmaganlar.* (Cho‘lpon. «Kecha va kunduz*»)* Keltirilgan parchada esa bermoq fe’li *qo‘ymoq, atamoq, nomlamoq* ma’nosida ishlatilgan. *Yo‘q, aravakashligi qursin! Boshqa ishga* ***beramiz****..* (Cho‘lpon. «Kecha va kunduz*»)* Bu gapda bermoq fe’li *o‘tkazmoq, joylashtirmoq* ma’nosida qo‘llangan. *Umrida peshonasi sajda ko‘rmagan odamga qiz* ***beramanmi?*** (Cho‘lpon. «Kecha va kunduz*»)* Keltirilgan gapda bermoq fe’li *uzatmoq, turmushga chiqarmoq* ma’nosini anglatishga xizmat qilgan *Bir nafas to‘xtab o‘yladi va darhol qarorini* ***berdi.*** (Cho‘lpon. «Kecha va kunduz*»)* Bu gapda *aytmoq, ma’lum qilmoq* ma’nosida ishlatilgan. *Aylanay, bolam, orzu-havasingizga yeting, bola-chaqa ko‘ring, tilagingizni* ***bersin*** *xudoyim!* (Cho‘lpon. «Kecha va kunduz*»)* Bu gapda esa bermoq fe’li *ijobat qilmoq, ro‘yobga chiqarmoq* ma’nosida qo‘llangan. *Chakkasini zax yerga* ***berib*** *yiqilg‘an va kesak kabi hissiz qizini jon holatda quchog‘ig‘a oldi.* (A.Qodiriy. «O‘tkan kunlar») Yuqoridagi gapda bermoq fe’li *qo‘ymoq* ma’nosida qo‘llangan. *Necha marta aytdim: kuyovingni sudga* ***ber!*** (O‘.Hoshimov. «Tushda kechgan umrlar*»)* Keltirilgan gapda bermoq fe’li *arz qilmoq, topshirmoq* ma’nosini anglatishga xizmat qilgan. *Nega buni o‘qishga* ***bermaysiz?*** *– Hali yoshi yetganicha yo‘q.* (X. To‘xtaboyev. «Mungli ko‘zlar**»)** Keltirilgan gapda bermoq fe’li *qo‘ymoq, joylashtirmoq* ma’nosida qo‘llangan. *Tovug‘imizning yarmi yaxshi tuxum* ***bermay*** *qo‘ydi, tovuq qarisa uch-to‘rt kunda bitta tug‘adigan bo‘lib qolarkan.* (X.To‘xtaboyev. «Mungli ko‘zlar**»)** Bu gapda bermoq fe’li *tug‘moq* ma’nosini anglatgan. Tahlilga olingan fe’llar ko‘makchi fe’l vazifasida qo‘llanishi mumkin, lekin ko‘makchi fe’l vazifasida kelgan fe’llar yangi ma’no ifodalamaganligi bois ishimizga kiritmadik.

Polisemantik so‘zlar badiiy nutqning ta’sirchanligini, ifodaliligini, obrazliligini ta’minlaydigan muhim uslubiy vositadir. Bir lug‘aviy vositaning hosila ma’nosi orqali bir necha tushunchani ifodalashi ko‘pma’noli so‘zlarning nutq jarayonida keng imkoniyatga ega bo‘lgan tasviriy vositaligidan dalolatdir. Badiiy va so‘zlashuv uslubiga xos polisemantik so‘zlarni to‘plash va ularning leksikografik talqinini berish ham muhim masalalardandir. Yuqorida tahlilga olingan ko‘pma’noli so‘zlarning asosiy nutqiy vazifasi ma’noni oldin ifodalanmagan tarzda tasvirlash orqali nutqning obrazliligini, serjiloligini ta’minlashdan iboratdir.

Yuqoridagi tahlillarda kelib chiqib aytish mumkinki, bir so‘zning turli ma’nolarda qo‘llanishi tilni soddalashtirishga va nutqni tejamli bo‘lishiga hamda ifodaviylik, obrazlilik, ta’sirchanlik kabi bo‘yoqlarni ta’minlashga xizmat qiladi.

Tilning muntazam rivojlanishi natijasida so‘zlarda ma’no taraqqiyoti sodir bo‘lishini hamda badiiy asarlarda qo‘llangan ko‘pma’noli so‘zlarni tahlil qilib shuni aytish mumkinki, o‘zbek tilida ko‘pma’noli so‘zlarning anglatadigan ma’nolari lug‘atlarda berilgan ma’nolaridan ko‘proq ekanligi oydinlashdi.

Rezyume. Maqolada polisemantik so‘zlarning badiiy asarlardagi uslubiy xussusiyatlari haqida fikr yuritilgan, *tashlamoq va bermoq* ko‘pma’noli fe’llarining badiiy asarlardagi va lug‘atlarda berilgan ma’nolari tahlili keltirilgan.

Resume. The article discusses the stylistic features of polysemantic words in works of art, and presents an analysis of the meanings of the polysemantic verbs «to throw» and «to give» in works of art and in dictionaries.

Резюме. В статье рассматриваются стилистические особенности многозначных слов в художественных произведениях, а также представлен анализ значений многозначных глаголов «бросить» и «дать» в художественных произведениях и в словарях.

[1] O‘TIL . 1-jild. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2023. – B. 412.